

## BADIIY MATNDA SO'ZLAR JILOSI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8114871>

**Adizova Nilufar Istamovna**

*Buxoro davlat universiteti O`zbek tilshunosligi va  
jurnalistika kafedrasida o`qituvchisi.  
nilufar.adizova71@gmail.com.*

### **Annotatsiya.**

Dunyo tilshunosligi tilning jamiyat taraqqiyoti, inson tafakkuri, his-tuyg'ulari bilan uzviy bog'liqligi tufayli inson ongida paydo bo'lgan tushunchalar hamda subyektiv munosabatlar nutq orqali yuzaga chiqishi aniqlangan. Til tizimiga antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida yondashilib, lisoniy imkoniyatlarning badiiy nutq sifatida voqelanishini tadqiq etuvchi lingvostilistikaning nazariy hamda amaliy jihatlariga xos qonuniyatlarni tasniflash, muayyan badiiy matnlar asosida umumiy lingvopoetik imkoniyatlarni ijodkor uslubi~til imkoniyati~badiiyat mahsuli mushtarakligi tamoyili asosida o'rganish bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

Ma'naviyatimizning bir bo'lagi, milliylikning asosi bo'lgan tilimizni asrash, uni milliylik zaminidan uzilmagan holda tadqiq etish va rivojlantirish, til imkoniyatlari va sara badiiy asarlar orqali insoniyatning o'z-o'zini, o'zgalarni, qolaversa, butun olamni anglashi kabilarni o'zaro aloqadorlikda, uzviylikda atroflicha tadqiq etish, milliy-madaniy yuksalish uchun ham muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada har qanday badiiy asarning o'quvchi qalbiga kirib borishi hamda yashovchanligini ta'minlashda muhim bo'lgan ijodkor uslubining o'ziga xos qirralari hamda so'z qo'llash bilan bog'liq lingvostilistik jihatlar haqida fikr yuritiladi.

### **Kalit so'zlar**

*toponim, antroponim, rang bildiruvchi birliklar, leksik-semantik, morfologik me'yorlar, sintaktik-stilistik muvofiqlik, lingvoestetik qiymat, individual uslub, uslubiy vosita, uslubiy imkoniyat, ifoda uslubi, takrorlar, uyushiq bo'laklar, shaxs nutqi.*

Kirish. Har qanday badiiy asar ta'sirchanligi ijodkorning til hodisalaridan foydalanish mahorati bilan baholanadi. Adabiyotshunos olim I.Adizova fikricha, "She'riyat bu tuyg'ular va ruhiyat hayotining ifodasidir. Shu sababli ham ularni tasvirlovchi, izohlovchi leksema ma'nolari oddiy, kundalik so'z ma'nolaridan farqlanadi...Demak, she'riyatda har bir so'z o'zining botiniy hayotini ham yashaydi. Zohiriy ma'nodan tashqari, haqiqiy poeziyadagina uyg'onadigan botiniy (ichki) ma'no ham junbishga keladi." Yoki buni yaxshi anglagan amerikalik olim

T.S.Eliot ham “poeziya so‘zlar o‘zining chin ma‘nosini yo‘qotadigan ong chegarasida yuzaga keladi” deb ta‘kidlaydi. [2,34].

“Modomiki, shoir hayotni aks ettirar ekan, demak, u muqarrar ravishda quyidagi uch narsadan birini: hayot qanday bo‘lsa, shundayligicha, yo odamlar aytayotgan va tasavvur qilganicha, yo hayotning qanday bo‘lishi kerakligini tasvirlashi kerak bo‘ladi. Bu narsalarga esa til bilan yo noyob, yo ko‘chma ma‘noli so‘zlar bilan erishiladi” [3,48].

Erkin Vohidov xalqni o‘zining chinakam ustozini deb biladi:

El–ustozim, men esa tolib,

So‘z durlarin termoqdir ishim.

Odamlarning o‘zidan olib,

Odamlarga bermoqdir ishim[12,49].

Metodologiya. Ma‘lumki, dostonlar tahlili asosida qator tadqiqot ishlari yaratilgan bo‘lib, ularning salmoqli qismi xalq poetik ijodi hamda mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Masalan, “O‘zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili” (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida) – Rahimov A.S.: Fil.fanlari nomzodi.dis.avtoref.– T., 2002, “Nizomiy va Qutbning “Xisrav va Shirin” dostonlarining qiyosiy tahlili” – G‘anixonov M.A.: Fil.fanlari nom. dis. avtoref.–T., 1994, “Janubiy Xorazm dostonlari tilining lug‘aviy-ma‘naviy tahlili” (“Shahriyor” va “Malikai Zahriyo” dostonlari asosida) – Ro‘zimboyev S.S.: Fil.fanlari nom. dis.avtoref.– T., 2000... va b.

Zamonaviy dostonlarning adabiyotshunoslik fani obyektini sifatida o‘rganilishiga doir tadqiqot ishlari ham olib borilgan bo‘lib, ularda zamonaviy dostonlar strukturasi, mohiyati, badiiy qurilishi, ijodkor individual uslubiga oid fikrlar bayon etilgan. Tilshunoslik obyektini sifatida mustaqillik davri dostonlarining lingvopoetik xususiyatlari, lisoniy birliklarning leksik-semantik, sintaktik-stilistik o‘ziga xosligi M.O.Qurbonovanning “Mustaqillik davri dostonlari lingvopoetikasi” (Farg‘ona, 2019) nomli tadqiqot ishida tahlilga tortilgan bo‘lib, tadqiqot obyektini sifatida A.Oripov, Muhammad Ali, Azim Suyun, Ramz Bobojon, To‘lan Nizom, Oydin Hojiyevalarning dostonlari tanlab olingan. Ushbu tadqiqot ishida mustaqillik davri dostonlarining leksik-semantik jihatlari, qo‘llanilgan lisoniy birliklar – hikmatli so‘zlar, maqol va matallar mustaqillik davrigacha yaratilgan dostonlar bilan qiyosiy tahlil etilgan. Ijodkorning o‘ziga xos poetik kashfiyotlari asosida qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalarining asar estetik qimmatini belgilashdagi muhim vazifalari tavsiflangan va tadqiqot obyektini bo‘lgan ijodkorlarning individual uslubiy mahoratlari, mavzu va g‘oya tizimida o‘zbek

xalqining o'ziga xos milliy tafakkur tarzi va badiiy-estetik ideali namoyon bo'lishining lingvistik asoslari ochib berilgan.

Quyidagi tahlillar orqali esa Erkin Vohidov dostonlari asosida shoirning so'z qo'llash mahorati, matnning lingvostilistik xususiyatlari yoritilgan. Shoir xalq dilidagini betakror she'rlari qatorida dostonlari qatlariga ham joylay olgan, so'zning turfa ranglari orqali ularga millat ruhini singdirgan, nozik did va sehr sohibi hamda faylasuf shoirdir. Dostonlar asosida keltirilgan quyidagi tahlillar orqali har bir so'zning uzukka qadalgan ko'z kabi munosib o'rinda muhrlanganiga amin bo'lish mumkin. Masalan:

Natijalar. Erkin Vohidov dostonlarida atoqli otlar bilan bog'liq toponimlar (joy nomlari) hamda antroponimlar (shaxs nomlari)ning o'ziga xos tarzda syujetga yuksak mazmun, ko'tarinkilik, ulug'vorlik, faxr-iftixor tuyg'ularini baxsh etishi hamda Vatanga cheksiz mehr-muhabbatni ifodalashiga guvoh bo'lish mumkin. Shoir qanchalar muhtashamlikda turmasin, qalban hamisha Ona Vatani bag'rida yashaydi, undan kuch oladi, uning so'lim go'shalarini o'quvchi ko'z o'ngida jonlantiradi. Masalan,

O'zbekiston kezsam,  
Ko'nglim Toshkentda,  
Moskvada sog'indim O'zbekistonim... ("Quyosh maskani" dostonidan)  
So'lim Farg'onaning munis bag'rida  
Bor olti ariqdan suv ichgan qishloq...  
...Qoldi Oltiariq -  
Ota qishlog'im,  
Ona shahrim Toshkent oldi bag'riga...  
("Quyosh maskani" dostonidan)

Muallif dostonning quyidagi bandida o'zining shoir bo'lib yetishishida betakror ijodi bilan ruhan dalda bo'lgan "baxt va shodlik kuychisi" H.Olimjon, tengsiz g'azallar muallifi Fuzuliy, tug'ma iqtidor sohiblari bo'lmish Usmon Nosir, Yesenin, Pushkinni ustoz deb biladi, ularni qalban o'ziga yaqin tutadi. Gyotening "Faust" asarini tarjima qilish muallifga shuhrat keltirganiga ishora qiladi. A.Navoiyning ulug'ligini, ijodida aks etgan "sehr"ni faxr bilan e'tirof etadi. Ijodkor Yevropa, Belarus kabi joy nomlari asosida urushning qora sahifalariga nazar soladi hamda urush tufayli qabri Belarus tuprog'ida qolib ketgan vatanparvar, fidokor shoir Sulton Jo'rani esga oladi:

Menga ustoz bo'ldi Hamid Olimjon.  
Yuragimga yana bir hamdam topdim  
Yesenin she'riga bo'lgach oshino,

Gyote ochdi menga sirlar kitobin  
Faust bilan birga sayr etdim dunyo.  
Fuzuliy devonin qo‘limga oldim,  
U soldi ko‘nglimga g‘azal mehrini...  
Anglab yetoldim Ustoz Alisherning buyuk sehrini.  
Vaqt kelib o‘limga turdi betma-bet,  
Yevropaga qildi ko‘ksini qalqon,  
Yoniq shoir yurak Sulton Jo‘raning  
Belorus yerida qolgan qabri bor... (“Quyosh maskani” dostonidan)

Ijodkor “Taxt va baxt” dramatik dostonida ham ko‘plab antroponimlar hamda toponimlarni muayyan millatga xos mentalitet, murojaat shakllari hamda o‘ziga xos joylar, tabiat manzaralari ifodasi sifatida aks ettiradi. Ushbu asarda ijodkor antroponimlardan quyidagi maqsadlarda foydalanadi: 1) personaj va qahramonlarni nasl-nasabi, ismi yoki sharifi bilan nomlash; 2) tarixiy shaxslar nomlarini eslatish, ulardan faxr tuyish; 3) o‘tmishda kishilarning ism-sharifiga kasbi, mavqei yoki lavozimi izohlovchi sifatida qo‘shib aytilishi odat tusiga kirganligini hamda o‘zbek milliy mentalitetida o‘ziga xos tavoze‘, murojaat shakllari va qadriyatlarini mavjudligini namoyon etish. Masalan, Haydarqulov Fikrat, Malohat, Abdumalik Xoji Nabiyev, Said Ashrafxon, Ozodbek Haydarqul o‘g‘li; Bobur (Mirzo Bobur), Furqat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mustafo Cho‘qay, Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Zamaxshariy, (imom) Muhammad al-Buxoriy, (Shayx, Xoja) Bahovuddin Naqshbandiy; Shayx Muhammad Hasan ibn Muhammad Jalol Sharqaviy hazratlari, Muftiy hazratlari, Elchi janoblari, Janob Vishvanat Singh janoblari, muhtaram Naimjon Rasuliy, Tabata Kuku janob, Sayyid Muzaffar Zako, Munavvar qori, Haydarqul ota, Xosiyat bibi, Ngoma Si-si janobi oliylari, Anvar Poshsho, cho‘pon Haydarqul, kolxozchi Haydarqul, shahzoda Said Fikratxon ibn Said Ozodxon, ibn Said Muzaffarxon Zako zoti oliylari, Shayx Muhammad Sulhiy kabilar shular jumlasidan.

Muallif ma‘lum bir voqealarni hikoya qilgan ekan, o‘ziga xos milliylik, tarixiylik hamda muhtashamlilik kasb etuvchi joy nomlarini ro‘y bergan hodisalarning o‘rni bilan o‘quvchini tanishtirish yoki yurt bilan faxrlanish maqsadida qo‘llaydi. Masalan, Jabaliya, Toshkent, Xo‘qandi latif, Mulki Hindu Marv, Turkiston, Bozorguzar mahalla, Buxoro, G‘arbiy Ummoniya, Mag‘ribiya, Samarqand, Hindiston, Go‘ri Mir, Shahrisabz, Mir Arab, Istanbul kabilar.

O‘zbek tilida oq, qizil, qora, ko‘k, sariq, moviy, qirmizi, pushti, zangori, yashil, malla kabi rang bildiruvchi sifatlar o‘ziga xos leksik-semantik, grammatik, hamda uslubiy xususiyatlarga egadir [10,15]. Tilimizdagi bu kabi so‘zlarning asl ma‘nosi

zaminida biror narsa, shaxs, predmet yoki hodisaning rang-tusi ma'nosi yotsa-da, badiiy matnlarda ular ekspressivlik va emotsionallikni oshirish, ta'sirchanlikni kuchaytirish maqsadida, asosan, ko'chma ma'noda aks etadi. Ayniqsa, oq, qora ranglari xalq iboralari, maqol, matallarida juda keng qo'llanadi. Badiiy asarlarda ranglarning turli uslubiy mazmun-mohiyat bilan aks etishi dunyo xalqlari ijodiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham mavjud. Jumladan, Erkin Vohidov dostonlarida ham rang bildiruvchi sifatlar hamda ularning ozaytirma, orttirma daraja shakllari shoirning muayyan maqsadlarini ifodalash, mazmunni boyitish, syujetning ta'sirchanlik kuchini oshirish omili sifatida qo'llanganini kuzatish mumkin. Ranglarning voqea mohiyatiga mos tanlab qo'llanishi muallifning boy falsafiy tafakkur tarzi va milliy-madaniy jihatlarning uyg'unligini aks ettiradi. Xalq ijodiyoti namunalarida qora, oq, qizil kabi ranglar ko'proq qo'llanishi ko'zga tashlanadi. Etnograf V.Trener oq, qizil, qora rang uchligining marosimlarda ifodalovchi ma'no qatlamlari orasida oqning er kishi, qizilning ayol va qoraning motam bilan bog'liq talqinlari muhim o'rin tutishini yozgan [11,84]. Ushbu ranglar xalq og'zaki ijodiyotida ham shu tarzda talqin qilinib, qora rang, asosan, motam, ayriliq, qayg'u-hasratli voqealar ifodasi, oq rang erkak, qizil rang ayol bilan bog'liq ijobiy hodisalarga ishora tarzida qo'llangan. Bundan tashqari oq rang poklik, qizil rang jo'shqinlik ramzi sifatida ham aks ettirilgan.

Muallif dostonlarida qora rang, asosan, qahramonlarning fojiali, baxtsiz ahvolini tasvirlash, qayg'u-alam ko'lamini bo'rttirib ifodalash uchun qo'llanilgan. Masalan, quyidagi misralarga nazar tashlaydigan bo'lsak, muallifning "o'q" ni qora deb tasvirlashi asosli, zotan, uning rangi qanday bo'lmasin, u inson uchun yomonlik, fojialar keltiradi, ayriliqlarga sababchi bo'ladi. Shoir rang ifodalovchi sifat vositasida metaforik ifodani hosil qiladi va ta'sirchanlikni oshirishga erishadi. Misralar davomida lirik qahramon bolaligini xotirlar ekan, ko'z o'ngida uqubatlar girdobida erta yo'qotilgan bolaligi qop-qora ranglarda jonlanadi va qahramonning cheksiz sog'inch va armonlar ichida o'rtanishlari "zanjiday qaro" o'xshatishi orqali aks etadi:

Bag'rim o'yib,

Bu kun menga bermoqda azob

Sizning ko'ksingizni teshgan qora o'q. ("Nido" dostonidan)

Qishloq ko'chasi zanjiday qaro

Olov bolaligim yugurayotir. ("Nido" dostonidan)

Urush davrida keladigan "qora xat"larning ham o'qdan kam joyi yo'q. U ham xonadonlarga, oilalarga kulfat, qayg'u olib keladi, bolalarning yetim qolishiga



sababchi bo'ladi. O'zi oq bo'lsa-da, kelishi qorong'ulikning rangidek dahshatni, azob-u uqubatni boshlab keladi:

...Dadasidan kelgan ekan qora xat.

Hammamiz yig'ladik Hatto muallim... ("Nido" dostonidan)

Bo'lmasin qaro tun zulmati.

Bu yerda yuraklar hur bo'lsin. ("Nido" dostonidan)

Ushbu misralar orqali Toshkentda 1966-yilda sodir bo'lgan zilzila fojialari va u keltirgan talafotlarni shoir "qora sahifalar" da aks ettiradi:

O'tdi dahshatli kun,

Qora sahifa. ("Palatkada yozilgan doston" dan)

O'zbek millati uchun qora rang, asosan, baxtsizlik, g'am-kulfat ifodasi bo'lsa, oq rang beg'uborlik, soflik, xotirjamlik ramzi sifatida xalqimiz madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida keltirilgan misralarda muallif ko'chani boshqa ko'chalardan obodligi, ravon hamda tozaligiga ishora tarzida lavha ham boshqa rangda emas, faqat oq rangdagi marmarga yozilishi lozim degan fikrni singdiradiki, o'quvchi ko'z o'ngida nafaqat tasvir, balki yoshlarga xos beg'uborlik, betashvishlik, jo'shqinlik ham namoyon bo'lgandek bo'ladi:

Katta ravon shahroh nomin

"Pokizalik" deb qo'ying.

Oq marmardan lavha qo'yib

Navoiydan bayt o'ying. ("Palatkada yozilgan doston" dan)

Yoki

Dada, U kun sizni tushimda ko'rdim.

Oq otda keldingiz, so'radingiz suv. ("Nido" dostonidan)

Hilpirardi yel bilan o'ynab

Oppoq shohi ro'mol boshida. ("Orzu chashmasi" dostonidan)

Oq rangni muallif yoshi ulug'lik ramzi sifatida ham qo'llaydi:

Qolganlar umrning sarhisobin qilar,

Soch oqiga boqib surarlar xayol. ("Nido" dostonidan)

Ko'k, ko'kish, moviy, qirmiz, qizg'imtir kabi yorqin ranglarni muallif xotirjamlik, osudalik, tinchlik ifodasi sifatida qo'llaydi, biroq bezovtalik, noxushlik hamda fojiali holatlar tasviri uchun qizil, qip-qizil ranglarini tanlaydi va badiiy uslubning jozibadorligini oshiradi:

Boshpanamiz moviy osmon,

Yulduzlardir ko'rpamiz. ("Palatkada yozilgan doston" dan)

Moviy edi shishadek osmon,

Moviy edi qirlar beg'ubor.

Moviy edi ko‘zimga jahon,  
Telegramda bahor. (“Baxmal” dostonidan)  
... Xira bo‘lsin, ko‘kish bo‘lsin  
Bu xiyobon chirog‘i. (“Palatkada yozilgan doston” dan)  
... Dengiz yuzi bo‘lganda qirmiz,  
Suv bo‘yida Olardi orom  
Sevganining og‘ushida qiz. (“Orzu chashmasi” dostonidan)  
Ko‘z olguvchi qizg‘imtir otash  
Yonganida har bir yaproqda. (“Baxmal” dostonidan)  
Ko‘tarildi dengizdan quyosh  
Suvni bo‘yab qip-qizil qonga. (“Orzu chashmasi” dostonidan)

Muallif muayyan ranglar jilosida tovlanuvchi ifoda birliklar orqali ham betakror manzaralar tasvirini jonlantiradi, voqealarni turfa ma‘nolar bilan boyitadi. Masalan, alvon (Ufq yopmay yuziga alvon, Yelkasiga qo‘yib ko‘zasin, Yo‘l olardi ko‘k chashma tomon.), lolagun (Olam nur qo‘ynida yashnar lolagun.) birliklari qizil rangni ifodalasa, lojuvard (Moviy dengiz sohillari, Lojuvard osmon, Jonbaxsh havo, bepoyon suv, so‘lim tabiat.) ifodasi moviy, havorang sifatida qo‘llanadi, firuza (Suv bo‘yiga asta cho‘kib tiz, Ko‘ngli kabi tiniq firuza Chashma bilan so‘ylashadi qiz.) rangi esa soflik, xotirjamlikni ifodalash omili bo‘lib, moviy rangni yodga soladi.

Takrorlar mumtoz adabiyotda “takrir” deb yuritiladi. Ular misralarda so‘zlarni takror keltirish orqali ma‘noni ta‘kidlash, kitobxon e‘tiborini qaratish uchun qo‘llanadi[8,61]. Erkin Vohidov ijodiy mahoratining namoyon bo‘lishida betakror joziba baxsh etgan takrorlarning ham alohida o‘rni bor. Buni quyida keltirilgan misollar asosida kuzatish mumkin:

Badiiy adabiyotda so‘z yoki birikmalarning gap boshida kelishi anafora, gap oxirida kelishi epifora sanaladi. Poetik nutqda takrorlar anafora shaklida keng qo‘llanadi. Masalan, quyidagi so‘z shaklidagi takrorlar orqali lirik qahramon tomonidan o‘tganlarni doimo yod etish, ularning fidoiyligini aslo unutmazlik lozimligi qayta-qayta uqtirilsa, keyingi parchada zilzila bilan bog‘liq fojining qayta yuz bermaslik istagi kuchaytirib ifodalanadi.

1)so‘z shaklida ifodalangan takrorlar:

Unutmam! Unutmam! Unutmam!

Sira Muborak nomlarin... (“Nido” dostonidan)

Yo‘q, sira qaytmaydi

Qonli fojia,

Qaytmaydi Qaytmaydi Qaytmaydi u boz. (“Palatkada yozilgan doston” dan)

Ushbu misralarda muallif sovchilarni birma-bir sanash asosida yuzaga keltirgan beqiyos takrorlari vositasida voqelikka ajoyib musiqiylik, jarangdorlik va kuchli ta'sirchanlik baxsh etadi hamda lirik qahramonga nisbatan o'quvchining ham mehrini oshirishga erishadi:

Birisining qo'lida dunyo,

Birisida yoshlik va qudrat,

Biri elda tengi yo'q dono,

Biri esa Tanho xushsurat.

Yana biri sohibkor bog'bon,

Tosh ustida undirguvchi gul.

Biri naqqosh, Biri suxandon,

Biri esa qo'shiqchi-bulbul... ("Orzu chashmasi" dostonidan)

Quyida keltirilgan misralar orqali muallif o'quvchi ko'z o'ngida Toshkentning zilziladan avvalgi ahvoli-yu o'tmish xotiralarni hamda shaharning bugungi qiyofasini jonlantirgandek bo'ladi:

O'sha jin ko'cha-yu, guvala devor

O'sha temirchilik, o'sha rastalar... ("Toshkent sadosi" dostonidan)

Goh shodlik,

Goh alamidan

Dil chashmasi ochildi. ("Ruhlar isyoni" dostonidan)

2) birikma shaklida ifodalangan takrorlar.

Shoir tasvirni qiyoslash va voqelikka diqqat qaratish uchun takrorlarning birikma shaklidan ham foydalanadi. Ular vositasida go'zal manzara va lavhalar yaratadi hamda kuchli ekspressivlik, ta'kidni yuzaga chiqaradi:

Bu Vatan-Bir yog'i cheksiz ummondir,

Bir yog'ida uning muzliklar, tog'lar,

Bir yoni shovillab yotgan o'rmondir,

Bir yonida o'rik gullagan bog'lar. ("Quyosh maskani" dostonidan)

Butun qishloq

Bugun xurram, shod.

Butun qishloq sayilgoh bugun. ("Orzu chashmasi" dostonidan)

Hanuz eslab yonar yuzlarim,

Hanuz eslab yig'lar ko'zlarim,

Hanuz eslab o'rtanar vijdon. ("Baxmal" dostonidan)

Xalq birligi tog'larni ham qulatadi,

Xalq birligi sahrolarni gullatadi. ("Taxt va baxt" dostonidan)



Shoir dostonlarida to'liq gap shaklidagi takrorlarning ifodalanishi kam uchraydi. Biroq ularning mavjud shakllari muallif ijodiy imkoniyatlarining naqadar kengligini namoyon etadi:

Tangrilarni osmon qadar

Ko'targan ham sen.

Sajda qilgan,

Yana isyon

Ko'targan ham sen. ("Ruhlar isyoni" dostonidan)

So'z yoki birikmalarning gap oxirida takror qo'llanishidan epiforaning yuzaga kelishi ham muallif ijodida ko'zga tashlanadi hamda uning dostonlariga kuchli ta'sirchanlik baxsh etadi:

Faqatgina taxt-u toj yo'q,

Mashvarat yo'q, Devon yo'q.

Xazinaga ehtiyoj yo'q,

Chunki qo'lda farmon yo'q. ("Ruhlar isyoni" dan)

Bu shon-u shavkat

Omonatga o'xshaydi,

Vazirlarning fikri faqat

Xiyonatga o'xshaydi. ("Ruhlar isyoni" dan)

Erkin Vohidov ijodida har bir so'z usta naqqosh o'yib qo'ygan naqsh singari o'z o'rnida muhrlangan. Shu sabab ulardan birini boshqa so'z bilan almashtirish asar mazmuniga ta'sir etmay qolmaydi. Zotan, bu marvarid donalaridek jozibador, nafis kuydek jarangdor "javohirlar" ning "so'zlar xazinasi" dan saralanib, misralar bag'riga joylaganishi ham ijodkorning hassos so'z ustasi ekanligiga dalildir.

Uyushiq bo'laklar stilistik jihatdan tasviriy vositalar guruhiga kiradi. Bunday bo'laklar yordamida umumiy kartinalarning detallari, harakat dinamikasi tasvirlanadi, kuchli ekspressivlik ifoda qiluvchi epitetlar qatori hosil qilinadi [13,178] . Ular sintaktik jihatdan teng bog'langan birdan ortiq bo'laklar bo'lib, nutqning eng faol birligi sifatida badiiy matnlarda ham keng qo'llanadi. Bunday bo'laklar bir-biridan to'xtam bilan ajratilib, sanash ohangida aytiladi. Erkin Vohidov dostonlarida ham uyushiq bo'laklar orqali ma'noning kuchliroq ifodalanishi ta'minlanadi. Ular muayyan vaziyat va shaxsni tavsiflash yoki tabiat manzaralarini ta'sirchan tasvirlashda faol qo'llaniladi:

Eng olis janubning limusi qadar.

Daryolar, vodiylar, dengiz-u tog'lar. ("Quyosh maskani" dostonidan)

Bu – ming yillar orzu, afsona bo'lgan

Erk, Tenglik, Saodat, Do'stlik Vatani.

...Uying, bola-chaqang, do‘st-u o‘rtog‘ing. (“Quyosh maskani” dostonidan)

Qahatchilik, ochlik, yupunlik,

El boshida har kun bir savdo. (“Baxmal” dostonidan)

Shoir dostonlarida uyushiq bo‘laklar nafaqat sanash ohangini ifodalash, balki lirik qahramonning kuchli hayajon va tuyg‘ularini namoyon etish vositasi sifatida ham muhim stilistik ahamiyat kasb etadi. Ularning birikmalar yoki gaplar shaklida qo‘llanishi esa voqelikni o‘zgacha mazmun, ta‘sirchanlik bilan boyitadi, o‘quvchiga estetik zavq bag‘ishlaydi, nutqning ohangdorligi hamda jozibasini yanada oshiradi.

Masalan:

Muftiy: Shuncha hissiyot bir yurakka qandoq sig‘di ekan?

Vatan hasrati, yor qayg‘usi, farzand dog‘i, nabirani ko‘rish quvonchi.

Tasavvurga sig‘maydigan, qalb ko‘tarolmaydigan daqiqalar. (“Taxt va baxt” dan)

Dunyo qayg‘usiga bo‘lmagan oshno,

Qah-qah urayotir, Barq urayotir.

Bilmas, boshi uzra bulutli samo

Chaqmoq chaqayotir, Guldurayotir.

Bilmas, yaralangan bu majruh dunyo

Qasos so‘rayotir, bong urayotir... (“Nido” dostonidan)

Juft va takroriy so‘z shakllari. Muallif ijodida har bir til birligi singari juft va takroriy so‘zlar ham o‘ziga xos muhim uslubiy vazifa bajaradi. Ular fikriy teranlik, obrazlilikni vujudga keltirish, ta‘sirchanlikni oshirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Juft so‘zlar, tarkiban sodda, nomurakkab leksik birliklardan farqli o‘laroq, odatda, umumlashtirish, jamlash, to‘dalik, ta‘kid, intensivlik kabi ko‘pgina ma‘no nozikliklarini ifoda etish, ba‘zan belgi va harakat ma‘nolarini kuchaytirish kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan tushunchalar ifodasi uchun ishlatiladi. Juft so‘zlarning umumlashma ma‘no nozikliklari kasb etishlari, asosan, tarkibidagi komponentlarining ma‘no jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lib, bir-birlarini mazmunan to‘ldirishlari va shu yo‘l bilan kengroq tushunchalarni qamrab olishlari bilan bog‘liqdir.[9,31]

So‘zlarni juftlash birinchidan, ularning ma‘nosini umumlashtirish, yaxlitlash, mazmunan bir-biriga yaqin birliklarni birlashtirish, ikkinchidan, muayyan fonetik shart-sharoit yaratish talabi bilan amalga oshiriladi. A.Abdullaev ikkinchi usulning ma‘no kuchaytirish-urg‘uni ko‘chirishdagi fonetik qonuniyat zaminida vujudga kelganini aytadi. Ya‘ni, ma‘lum so‘zlarda ochiq bo‘g‘inni yopish-qo‘sh undosh hosil qilish uchun ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarda undosh tovushlar orttiriladi va shu yo‘l bilan ma‘no kuchaytirishga erishiladi. Masalan, qora-qop-qora, toza-top-toza,

dumaloq-dum-dumaloq kabi [1,12]. Soʻzlarni takror qoʻllash esa maʼno kuchaytirishning eng samarali usuli sifatida fikr taʼsirchanligini oshirishga, badiiy asar gʻoyasini boyitishga hissa qoʻshadi.

Ijodkor dostonlarida ham juft va takroriy soʻzlar shoir maqsadiga mos holda umumlashtirish, yaxlit bir butunlikda tasavvur etish maʼnolarini hamda lirik qahramon kechinmalari, hissiyotlarini ifodalaydi. Shunga koʻra, shoir dostonlarida qoʻllangan juft va takroriy soʻzlarni tahlil qilishga quyidagicha yondashish mumkin:

1)belgining, miqdorning meʼyordan ortiqligi ifodasi;

2)umumlashtirish ifodasi;

3) maʼno kuchaytirish ifodasi;

4) ichki kechinmalar, hissiyotlar ifodasi;

5) ketma-ketlik, bir butunlik ifodasi.

1) belgining, miqdorning meʼyordan ortiqligi ifodasi:

Shu kun tunda uch chiziqli daftarimga,

Oro berib katta-katta harflarimga. ("Nido" dostonidan)

Qator-qator turnalar bilan

Uchar edim argʻimchoq solib.

Uchar edim-ey baland, baland!

...Tashqarida qiy-chuv, faryodlar. ("Baxmal" dostonidan)

2) umumlashtirish ifodasi:

Oqshom choʻkar koʻcha-koʻyga,

Tarqalamiz uy-uygayu, tepa-toʻyga ("Nido" dostonidan)

Yana yurtim uchun ne deyman oʻzga,

Mening hayotim ul, rizq-u roʻzim ul. ("Quyosh maskani" dostonidan)

3)maʼno kuchaytirish ifodasi:

Bu dahshat fojia yuz berdi kecha,

Sokin choshgoh payti,

Kuppa-kunduzi. ("Palatkada yozilgan doston" dan)

Ammo buni zinhor-zinhor

Aytib boʻlmas zamondir. ("Ruhlar isyoni" dan)

Intizor kechalarda

Yigʻlay-yigʻlay koʻr boʻlgan... ("Orzu chashmasi" dostonidan)

4)ichki kechinmalar, hissiyotlar ifodasi:

Shu payt sukut koʻksini tilib,

Yayrab-joʻshib, shoʻx-u bearmon

Bir qiz qoʻshiq xirgoyi qilib

Bog' ko'chadan o'tdi nogihon. ("Baxmal" dostonidan)

Hali yetti yoshga to'lib-to'lmasdan,

...Otamning mehri to'yib-to'ymasdan

Hamma judolikni ko'ribdi yurak... ("Nido" dostonidan)

5)ketma-ketlik, bir butunlik ifodasi:

Kunlar o'tdi bir-birin quvlab,

Doktor qilgan dori-yu darmon

Asta berdi tanimga quvvat,

...Atak-chechak tashladim qadam. ("Baxmal" dostonidan)

Umuman olganda, shoir Erkin Vohidov ijodida har bir so'z yoki ifoda o'z o'rnida qo'llanishi bilan shoir mahoratini namoyon etadi. Juft va takroriy so'zlar ham muallif ijodiga latif ohang hamda purma'no viqorni baxsh etgan holda asar voqealarining ta'sir kuchini oshirishga hissa qo'shadi.

Xulosa. Ijodkorning sara asar yarata olishi faqat uning iqtidoriga, boy fantaziyasi yoki hayotiy kuzatuvlarigagina bog'liq bo'lmaydi. U, avvalo, til ilmidan, shuningdek, nutqning o'ziga xos me'yoriy o'lchovlaridan xabardor bo'lmog'i lozim. Til, nutq ilmidan xabardorlik ijodkorga yuksak saviyadagi badiiy asarlar yaratish, so'z chaqinlarini paydo etish, ko'chimlarning rang-barang, betakror ko'rinishlarini yaratish, asosiysi, lisoniy-badiiy tafakkur egasiga aylanish imkonini beradiki, Erkin Vohidov ana shunday til, nutq ilmidan boxabar ijodkordir. Buni ijodkorning mualliflik dostonlari to'la dalillaydi.

Erkin Vohidov dostonlari realistik ijod namunalaridir. Ular mavzu, tuzilishi va uslub jihatidan serqatlam va turlicha bo'lsa ham, ularda haqqoniy tasvir ustuvordir. Zero, an'anaviy realizm imkoniyatlarining yuzaga chiqishida janr takomilidagi evrilishlar, voqelik va ruhiyat qamrovining kengayishi, doston ichki tiplarining ko'payishi, boshqa janrlar unsurlari bilan sintezlashuv kabi hodisalarning sezilarli ta'siri mavjud.

Dostonlar asosida shoirning so'z qo'llash mahoratini aniqlash maqsadida ayrim birliklarning chastotaviy tahlili olib borilganda, foiz hisobida quyidagi natijalar ko'zga tashlandi:

Ot so'z turkumi (atoqli otlar) - 40%;

takrorlar - 20%;

uyushiq bo'laklar - 18%;

rangni ifoda etuvchi sifatlar - 12%;

juft va takroriy so'z shakllari - 10%.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан. 1983. – Б. 12.
2. Адизова И. Увайсий шеърларида поэтик тафаккурнинг янгилиниши. – Тошкент: Муҳаррир, 2020, – Б.34.
3. Арасту .Поэтика.Ахлоқи кабир. Риторика. –Тошкент: ЎЗМЭ, 2018.– Б.48, 64.
4. Istamovna A. N. OCCASIONAL DERIVATIVES IN CREATIVE EPICS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 5. – С. 146-152.
5. Istamovna A. N. IJODKOR DOSTONLARIDA MUROJAAT BIRLIKLARI. Intern. Scientific and practical conference: Pedagogical sciences and teaching methods. (15-may,2022). Copenhagen. VOLUME 1, ISSUE 13. P.102-108.
6. Istamovna A. N. The power of creative expression-On the example of Erkin Vakhidovs epics //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – Т. 8. – С. 104-112.
7. Istamovna A. N. Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida) //Conferences. – 2021.
8. Жаҳонов К. Мумтоз шеърлар латофати. – Бухоро: Дурдона, 2014. – Б.61.
9. Мусаев Қ. Тил birlikларини танлаш маҳорати//Ўзбек тили ва адабиёти. 1990.–№6. –Б.31.
10. Пардаев З. Ранг-тус билдирувчи сифатларни ўрганиш// Тил ва адабиёт таълими.2003, № 3. – Б.15.
11. Турдимов Ш. Халқ кўшиқларида рамз. – Тошкент: Фан, 2020. – Б.84.
12. Воҳидов Э. Муҳаббат. –Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти,1976. – Б.49.
13. Шомақсудов А., Расулов И, Қўнғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.178 .